XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 12-sentabr VI-80-126-8-121-K/24 Termiz shahar

Termiz shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi Qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogodeziya markazi Surxondaryo hududlararo boʻlinmasining 2024-yil 12-avgustdagi Termiz shahar hokimiga yuborilgan 01-119-sonli xat orqali maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Termiz shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasining 2024-yil 13-avgustdagi 03-01/111 Y/B-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Termiz shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan hujjatlarga asosan

Termiz shahar bilan chegaradosh bo‘lgan Termiz tumani o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq, yo‘l va boshqa tabiiy hamda sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining shahar bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining tarmoqlar bo‘yicha barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi, Kengash raisi o‘rinbosari

NORMURADOVA DILBAR ABDIKOSIMOVNA

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2024-yil 12-sentabrdagi
VI-80-126-8-121-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz shaharningchegara
TAVSIFI

Termiz tumani va Termiz shahrining chegara chiziqlari kesishgan joy, S-2 zovuri va M-39 avtomobil yoʻli koʻprigining sharq tomonida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 37°15'11,47", sharqiy uzoqlik koordinatalari 67°14'2,35").*

A dan A gacha Termiz tumani yerlari bilan1-1-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi S-2 zovuri va M-39 avtomobil yoʻli koʻprigining sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 939 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°14'50,40", sharqiy uzoqlik 67°14'29,83").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi M-39 avtomobil yoʻlidan ariqqa oʻtadi va avval sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 212 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 353 metr, soʻng aholi tomorqa devori boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda yoʻnalishda 149 metr, soʻngra qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 151 metr masofada zovur oʻtib, S-2A zovuri boʻyidagi 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°15'2,91", sharqiy uzoqlik 67°14'54,01").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy avval sharqiy yoʻnalishda S-2A zovurining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1008 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi 96 metr masofani oʻtib, 4P-206 avtomobil yoʻli boʻyidagi 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 37°15'11,30", sharqiy uzoqlik 67°15'35,40").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi 4P-206 avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 319 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 18 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 254 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 212 metr masofada temiryoʻlni kesib oʻtib, yoʻl boʻyidagi 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°15'25,27", sharqiy uzoqlik 67°15'47,59").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi 4P-206 avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 309 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 1552 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°15'19,12", sharqiy uzoqlik 67°16'58,21").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi 4P-206 avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1532 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°16'8,53", sharqiy uzoqlik 67°17'2,54").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi 4P-206 avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 1462 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1573 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°16'35,07", sharqiy uzoqlik 67°18'54,93").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi 4P-206 avtomobil yoʻli ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 530 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 133 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 57 metr, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 258 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 59 metr masofada oʻtib, janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 70 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 322 metr masofani oʻtib, Termiz-Dushanbe temiryoʻli boʻyidagi 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 37°16'0,87", sharqiy uzoqlik 67°18'58,66").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi Termiz-Dushanbe temiryoʻlining gʻarb tomoni bilan avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 158 metr masofada Termiz-Gulbahor temiryoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 126 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 81 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 458 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 395 metr, keyin Termiz-Gulbahor temiryoʻlning janub tomoni bilan P-100 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, sharqiy yoʻnalishda 1639 metr masofani oʻtib, Surxondaryo daryosining koʻprigi boʻyidagi 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 37°15'23,76", sharqiy uzoqlik 67°20'18,55").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi Surxondaryo daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2656 metr masofani oʻtib, daryo boʻyidagi 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°14'6,77", sharqiy uzoqlik 67°19'43,60").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi Surxondaryo daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2018 metr masofada M-41 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, daryo boʻyidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°13'48,13", sharqiy uzoqlik 67°18'32,42").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi Surxondaryo daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3764 metr masofani oʻtib, Amudaryo daryosi boʻyidagi 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°11'55,86", sharqiy uzoqlik 67°18'21,44").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi Amudaryo daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 101 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 253 metr, soʻng umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 759 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 46 metr, dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 170 metr masofani oʻtib, sim toʻsiq boʻyidagi 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°11'45,93", sharqiy uzoqlik 67°17'37,30").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi sim toʻsiq orqali avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 192 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 440 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2329 metr masofani oʻtib, sim toʻsiq boʻyidagi 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°12'7,55", sharqiy uzoqlik 67°15'50,44").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi sim toʻsiq orqali avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1611 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 781 metr, soʻng

shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1367 metr masofani oʻtib, sim toʻsiq boʻyidagi 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°13'59,17", sharqiy uzoqlik 67°14'56,23").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi sim toʻsiq orqali avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1257 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1396 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda S-2 zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 41 metr, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 34 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 61 metr masofani oʻtib, zovur koʻprigi boʻyidagi 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 37°15'11,47", sharqiy uzoqlik 67°14'2,35").*

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining

